

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan "BARQARORLIK KURSI" seminar trening mart oyi

## BAYONNOMASI

O'tkazilgan sana: 18-mart 2026- yil

O'tkazilgan joy: kata faollar zali

**Seminar mavzusi:** Sog'lom muhit va barqaror turmush tarsi

**Qatnashdilar:** Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar

### KUN TARTIBI:

1. Yashil kampus tushunchasi va barqaror muhitni rivojlantirish yo'llari.
2. Universitetda ekologik va sog'lom turmush targ'iboti bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.
3. Talabalar va xodimlarning ekologik va sog'lom turmush tashabbuslaridagi ishtiroki.
4. Savol-javob va muhokama.

### MUHOKAMA:

Seminar davomida yashil kampus, ekologik muhitni rivojlantirish va sog'lom turmushni targ'ib qilish masalalari muhokama qilindi. QS Barqarorlik reytingi indikatorlari bo'yicha talabalar va xodimlarning ekologik tashabbuslari va amaliy loyihalarini platformaga kiritish zarurligi ta'kidlandi. Sog'lom muhit — inson salomatligi va farovonligi uchun xavfsiz, toza va qulay sharoit yaratilgan muhitdir. Toza havo, sifatli ichimlik suvi, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va ekologik tozalikka e'tibor berish sog'lom muhitning asosiy omillaridir. Atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirish, yashil hududlarni ko'paytirish va ekologik madaniyatni rivojlantirish inson hayoti sifatini yaxshilaydi. Barqaror turmush tarzi — salomatlikni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan yashashga qaratilgan hayot uslubidir. To'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, energiya va suvni tejash, chiqindilarni kamaytirish kabi odatlar sog'lom va barqaror hayotni ta'minlaydi. Bunday yondashuv inson organizmini mustahkamlaydi va kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Sog'lom muhit va barqaror turmush tarzi jamiyatda ijtimoiy farovonlikni oshiradi hamda kelajak avlodlar uchun qulay yashash sharoitini yaratadi. Ekologik toza hududlar, sog'lom odatlar va barqaror rivojlanish tamoyillarini kundalik hayotga joriy etish orqali inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat saqlanadi. Bu esa uzoq muddatli sog'liq, iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### QARORLAR:

1. Yashil kampus va sog'lom turmush bo'yicha seminar-treninglarni muntazam davom ettirish.
2. Talabalar va xodimlarning ekologik va sog'lom turmush loyihalaridagi faol ishtirokini oshirish.
3. QS Barqarorlik indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimli ravishda tayyorlab, platformaga kiritish.
4. Seminar materiallari va foto-hisobotlarni arxivlash.

Mas'ul shaxs: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna

Imzo: 